Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

RAQAMLI INSTRUKTIV DISKURSDA PARALINGVISTIK VA MULTIMODAL VOSITALARNING PRAGMATIK FUNKSIYALARI

Dilnoza Tojidinovna Xasanova*

Andijon davlat universiteti

✉ muhammadzonrahmatullayev798@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda raqamli kommunikatsiya, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda qo‘llanadigan instruktiv diskursning multimodal tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotda emodzi, stiker, GIF va skrinshot kabi paralingvistik hamda vizual vositalarning instruksiyani shakllantirish, uning pragmatik kuchini modifikatsiya qilish, adresat diqqatini boshqarish, emotsional fon yaratish va kognitiv yukni kamaytirishdagi o‘rni yoritiladi. Raqamli muhitda an’anaviy verbal direktivlar ko‘pincha turli semiotik vositalar bilan birikib, murakkab kommunikativ birlikni hosil qilishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi raqamli instruksiyalarda mazkur vositalarning umumiy va farqli pragmatik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar

raqamli diskurs, instruksiya, paralingvistika, multimodallik, emodzi, stiker, GIF, skrinshot, pragmatika, verbal direktiv, kognitiv yo‘naltirish.

DOI: 10.5281/zenodo.23278602

Raqamli kommunikatsiya zamonaviy insonning kundalik muloqotida muhim o‘rin egallab, an’anaviy yozma va og‘zaki nutq shakllarining o‘zaro yaqinlashuviga olib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardagi muloqot tashqi ko‘rinishidan yozma shaklda bo‘lsa-da, unda og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan emotsional, ekspressiv va pragmatik xususiyatlar ham faol namoyon bo‘ladi. Foydalanuvchi raqamli xabar orqali nafaqat axborot uzatadi, balki o‘z munosabati, kayfiyati, samimiyligi, kinoyasi yoki muloqotdagi ijtimoiy masofani ham ifodalashga intiladi. D. Kristal internet tilida grafik va tipografik vositalar yozma nutqqa og‘zaki kommunikatsiyaning ayrim xususiyatlarini olib kirishini ta’kidlaydi[1].

Mazkur jarayon, ayniqsa, instruktiv diskursda yaqqol namoyon bo‘ladi. Instruksiya adresatdan muayyan harakatni bajarishni talab qilgani sababli uning tushunarli, aniq va tez dekodlanishi muhim hisoblanadi. Raqamli muhitda *“bosing”*, *“yuboring”*, *“tasdiqlang”*, *“kuting”*, *“tanlang”* kabi verbal direktivlar ko‘pincha emodzi, stiker, GIF yoki skrinshot bilan birgalikda qo‘llanadi. Natijada instruksiya faqat grammatik imperativ shakl emas, balki bir nechta semiotik resurslarning o‘zaro integratsiyasidan tashkil topgan multimodal kommunikativ birlikka aylanadi.

G. Kress va T. van Lyuvin multimodal kommunikatsiyada ma’no til, tasvir, rang, joylashuv, harakat va grafika kabi turli semiotik resurslarning o‘zaro munosabati orqali shakllanishini qayd etadi[2]. Shu nuqtayi nazardan raqamli instruksiyani o‘rganishda verbal komponent bilan bir qatorda uning vizual va paralingvistik komponentlarini ham hisobga olish zarur.

Emodzi (1 -rasmga qarang) raqamli muloqotda eng faol qo‘llanadigan paralingvistik-semiotik vositalardan biridir. M. Danesi emodzilarni internet davrida rivojlanayotgan vizual til shakllaridan biri sifatida tavsiflab, ularning yozma muloqotdagi semantik va emotsional yukini alohida ta’kidlaydi[3].

1-rasm



Instruktiv diskursda emodzi bir nechta funksiyani bajaradi. Birinchidan, u vizual navigatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, ***“Bu tugmani bosing ”, “Pastga qarang ”, “Shu joyni tanlang ”*** kabi birliklarda verbal qism bajarilishi kerak bo‘lgan harakatni nomlasa, emodzi harakatning yo‘nalishini yoki obyektini ko‘rsatadi. Demak, emodzi adresat diqqatini muayyan kommunikativ obyektga yo‘naltiradi.

Ikkinchidan, emodzi instruksiyaning illokutiv kuchini modifikatsiya qiladi. ***“Shuni yuboring ”, “Bir ko‘rib chiqing ”, “Iltimos, kuting ”*** kabi shakllarda emodzi direktivning keskinligini kamaytirib, uni samimiy iltimos shakliga yaqinlashtiradi. Aksincha, ***“Buni aslo qilmang ”, “Diqqat bilan o‘qing ”, “Darhol tekshiring ”*** kabi shakllarda emodzi ogohlantirish, taqiq yoki shoshilinchlik ma’nosini kuchaytiradi. E. Dresner va S. Herring grafik belgilar matnning illokutiv kuchini aniqlashda muhim rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatadi[4].

Uchinchidan, emodzi kognitiv yukni kamaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. ***“Tasdiqlang ”, “Kuting ”, “Xato ”, “Muhim ”*** kabi shakllarda bitta vizual belgi nisbatan katta hajmdagi verbal axborotni ixcham tarzda ifodalaydi. J. Swellerning kognitiv yuk nazariyasiga ko‘ra, vazifa bajarish jarayonida ortiqcha axborot qayta ishlovi kognitiv samaradorlikni pasaytirishi mumkin [5]. Shu sababli emodzining qisqa va tanish vizual signal sifatida qo‘llanishi instruksiyani tezroq anglashga yordam beradi.



Stikerlar

oddiy emodziga nisbatan murakkabroq vizual tuzilishga ega bo‘lib, unda personaj, harakat, mimika va madaniy obraz birlashishi mumkin. Shu sababli stiker ko‘pincha alohida verbal replika o‘rnini bosuvchi multimodal birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

2-rasm¶


Instruktiv diskursda stikerning muhim vazifalaridan biri kommunikativ munosabatni belgilashdir. Masalan, “Mana buni qiling” degan instruksiyadan keyin ma’qullovchi stiker (2-rasmga qarang) ning qo‘llanishi ushbu harakatni tavsiya yoki qo‘llab-quvvatlash sifatida qabul qilinishiga yordam beradi. “Noto‘g‘ri” mazmunidagi stiker esa xatoni ko‘rsatishi mumkin. Shu tariqa stiker bevosita buyruq bermasa ham, instruksiyaning pragmatik ramkasini shakllantiradi.

Stikerning yana bir funksiyasi emotsional-ekspressivlik va ijtimoiy yaqinlikni ta’minlashdan iborat. D. Tannen muloqotda munosabat va ohangning kommunikativ talqindagi ahamiyatini ko‘rsatadi[6]. Raqamli muloqotda stiker ana shu munosabat qatlamini vizual shaklda ifodalash imkonini beradi.

GIF (3-rasmga qarang) esa emodzi va stikerdan farqli ravishda harakat dinamikasini namoyish etadi. Raqamli instruksiyada ***“chapga suring”, “tugmani bosib turing”, “qopqoqni aylantiring”, “ekranni pastga torting”*** kabi harakatlarni GIF orqali ko‘rsatish mumkin. Bunday vosita “nima qilish kerak?” degan deklarativ bilimdan “qanday bajarish kerak?” degan protsessual bilimga o‘tishni osonlashtiradi.

3-rasm





GIFlarning yana bir muhim xususiyati — murakkab jarayonni ketma-ketlikda ko‘rsatishidir. Masalan, texnik maslahat, ovqat tayyorlash, yuz parvarishi yoki uy-ro‘zg‘or bo‘yicha life-hack kontentlarida harakatning yo‘nalishi va ketma-ketligi GIF orqali bevosita namoyish etiladi. Shu sababli GIF instruktiv diskursning ko‘rgazmali-dinamik shakli sifatida baholanishi mumkin.



Skrinshot

(4-rasmga qarang)boshqa paralingvistik vositalardan o‘zining referensial va dalillovchi tabiati bilan ajralib turadi. U real interfeys holatini — tugma, menyu, xatolik xabari, to‘lov cheki, forma yoki chat parchasini ko‘rsatishi mumkin. 4-rasm

Instruktiv diskursda skrinshotning birinchi funksiyasi konkretlashtirishdir. ***“Chap tomondagi menyuni oching”*** yoki ***“Shu tugmani bosing”*** kabi ko‘rsatmalar skrinshotdagi belgilangan obyekt bilan birga berilganda ancha aniq tus oladi. Bunda skrinshot verbal instruksiyadagi referensiyani vizual jihatdan konkretlashtiradi.

Ikkinchi funksiya — dalillash va hujjatlashtirish. Masalan, foydalanuvchi to‘lov amalga oshirilganini, xatolik yuz berganini yoki fayl yuklanganini skrinshot orqali ko‘rsatishi mumkin. Biroq skrinshotning

dalillovchi qiymati mutlaq emas. Uni tahrirlash, kontekstdan uzib olish yoki noto‘g‘ri talqin qilish mumkin. Shuning uchun ilmiy tahlilda skrinshotni vizual dalil sifatida ehtiyotkorlik bilan baholash lozim.

Skrinshot, shuningdek, kognitiv ma’noni kamaytiradi. Murakkab interfeysni uzun verbal tavsif orqali tushuntirish o‘rniga kerakli tugma yoki menyu belgilangan skrinshotning yuborilishi foydalanuvchiga kerakli obyektni tez topish imkonini beradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi raqamli instruksiyalarda emodzi, stiker, GIF va skrinshotlarning asosiy funksiyalari ko‘p jihatdan umumiydir. Har ikki tilda ular diqqatni yo‘naltirish, tasdiq yoki taqiqni ifodalash, instruksiyani qisqartirish, vizual aniqlikni oshirish va pragmatik ohangni boshqarish uchun qo‘llanadi.

Masalan:

Click here — Bu yerga bosing ;

Confirm — Tasdiqlang ;

Don’t do this — Buni qilmang .

Biroq pragmatik ohang va muloqot odobida ayrim farqlar kuzatiladi. O‘zbek tilidagi raqamli muloqotda “*Iltimos, yuborib qo‘ying ”, “Bir ko‘rib chiqing ”* kabi shakllarda emodzi hurmat, samimiyat va yumshoqlikni kuchaytirishi mumkin. Ingliz tilida esa *please, could you, would you* kabi leksik-pragmatik yumshatkichlar emodzi bilan birgalikda direktivning keskinligini kamaytiradi.

Mazkur holat P. Braun va S. Levinsonning muloyimlik nazariyasi bilan izohlanishi mumkin. Ularning ta’kidlashicha, direktiv nutqiy akt adresatning “face”iga tahdid solishi mumkin [7]. Raqamli muloqotda emodzi, stiker yoki boshqa paralingvistik vositalar ushbu pragmatik kuchni yumshatish yoki, aksincha, kuchaytirish imkonini beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli instruktiv diskursda paralingvistik va multimodal vositalar yordamchi bezak emas, balki ma’no hosil qiluvchi va kommunikativ jarayonni boshqaruvchi muhim vositalardir. Emodzi diqqatni yo‘naltirish, tasdiq va taqiqni kuchaytirish, buyruqni yumshatish hamda emotsional fon yaratishda faol ishtirok etadi. Stiker munosabat, baholash, samimiyat va guruhiy yaqinlikni ifodalashga xizmat qiladi. GIF harakatni dinamik tarzda ko‘rsatib, protsessual bilimni faollashtiradi. Skrinshot esa instruksiyani konkretlashtirish, vaziyatni ko‘rsatish, dalillash va nazorat qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, zamonaviy raqamli instruksiya verbal birlikdan ko‘ra kengroq kommunikativ hodisa bo‘lib, uning mazmuni “matn + belgi + tasvir + harakat + kontekst” integratsiyasi orqali shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Crystal, D. Language and the Internet. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 31, 37–42.

[2] Kress, G., van Leeuwen, T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. London: Arnold, 2001. – P. 1–2, 20–22.

[3] Danesi, M. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. London: Bloomsbury Academic, 2017. – P. 17–32, 51–76.

[4] Dresner, E., Herring, S. C. Functions of the nonverbal in CMC: Emoticons and illocutionary force // Communication Theory. – 2010. – Vol. 20, No. 3. – P. 249–268.

[5] Sweller, J. Cognitive load during problem solving: Effects on learning // Cognitive Science. – 1988. – Vol. 12, No. 2. – P. 257–285.

[6] Tannen, D. Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse. - 2007.- 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press,

[7] Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – 1987. - Cambridge: Cambridge University Press,

[8] Grice, H. P. Logic and conversation // Cole, P., Morgan, J. L. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

[9] Kress, G., van Leeuwen, T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. 2nd ed. – 2006. London: Routledge,

[10] Britannica. Emoji. Electronic resource. – URL: https://www.britannica.com/ (accessed: 23.09.2025).

[11] Izoh.uz. Skrinshot. Elektron lug‘at. – URL: https://izoh.uz/word/skrinshot (accessed: 23.09.2025).